

## O'ZBEKISTONNING O'ZIGA XOS TARAQQIYOT YO'LI

*Andijon davlat pedagogika instituti ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi*

**SH. Keldiyeva**

*Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich  
talabasi*

**Qo'l dashova Nigoraxon**

*Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich  
talabasi*

**Dadamirzayeva Xanifaxon**

*Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich  
talabasi*

**No'monova Ismigul**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'z millatimizni qanday shakllangani, vaqt sari rivojlanishi, tarixiy taraqqiyot an'analari, o'z modelini va yangi taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqarilganligi haqida so'zyuritiladi.

**Abstract:** This article talks about how our nation was formed, its development over time, historical development traditions, its own model and new development strategy.

**Kalit so'zlar:** "O'zbek modeli", beshta tamoyil, bozor iqtisodiyoti, taraqqiyot yo'li, strategiya, yangi hujjat, yettita ustuvor yo'nalish.

**Key words:** "Uzbek model", five principles, market economy, development path, strategy, new document, seven priorities.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng kun tartibida jahon andozalariga mos keladigan davlat qurish, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohada tub islohotlarni amalga oshirish, ularni qonun bilan mustahkamlaydigan huquqiy tizimni yaratish vazifasi turardi. Mamlakatimiz Sobiq Sovet Ittifoqi tuzumdan chiqqanidan so'ng mulkchilik, mulkka egalik va uni boshqarish, ishlab chiqarish omillari, bozor mexanizmi, davlatning ijtimoiy - iqtisodiy hayotini barqaror izga solishga qaratilgan ob'ektiv zaruriyat yuzaga keldi. Mustaqillik yillarida mamlakat taraqqiyot uchun O'zbekistonda bozor munosabatlariiga o'tishning o'ziga xos yo'lini ishlab chiqish va bu yo'lda tub islohotlarni belgilash zarurati yuzaga keldi. Davlatimiz taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishiga O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov boshchilik qildi.

Islom Karimov o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari 1992 - yil 4 - yanvardagi IX sessiyasida so'zlagan dasturiy nutqida hamda 1992 - yil avgust oyida nashr etilgan "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida O'zbekistonning taraqqiyot yo'lini har tomonlama puxta belgilab berdi. Mazkur asarda yangilangan jamiyatda yashovchi kishining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini kafolatlovchi yo'llar ko'rsatib berilgan. O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li Islom Karimovning keyingi asarlari, ma'ruza va nutqlarida yangi ma'no - mazmun bilan

to'ldirilib, aniqlashtirilib borildi. O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish modeli Islom Karimov tomonidan ishlab chiqildi. Besh tamoyilni o'z ichiga olgan bu model:

1. Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi;
2. Davlat bosh islohotchi;
3. Qonunlar va ularga rioya qilish ustuvorligi;
4. Kuchli ijtimoiy-siyosat olib borish;
5. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tib borishdan iborat.

Bu barcha tamoyillar demokratik va iqtisodiy qayta o'zgartirishlar jarayonlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, hayot sinovidan o'tdi. "O'zbek modeli" mamlakatning mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiyotni liberallashtirish va demokratik islohotlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. O'zbekiston o'zining taraqqiyot va istiqlol yo'lida ko'plab muhim qadamlar qo'ydi. Mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakat keng ko'lamli iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirdi.

Hozirgi davrda mamlakatimiz rivojlanishida Prezident Shavkat Mirziyoyev taqdim etgan Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi loyihasida belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlar va eng muhim vazifalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi hujjat – Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi endi Yangi O'zbekistonning poydevorini tiklash va binosini qurishga qaratilgan. Bu buyuk bunyodkorlik jarayoni 2026 yilgacha bo'lgan davrni qamrab oladi va yilma-yil amalga oshirib boriladi.

Taraqqiyot o'zgarishlarining yangi tarixiy bosqichda davom ettirilishi ko'zda tutilgan holda, Taraqqiyot strategiyasiga 2 ta yangi ustuvor yo'nalish qo'shilyapti. Bularidan biri – ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi – O'zbekistonning dunyoda yuz berayotgan global muammolarga munosabati negizida belgilangan yangi ustuvor yo'nalishdir

Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida quyidagi yettita ustuvor yo'nalish nazarda tutilgan:

birinchi ustuvor yo'nalish – inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

ikkinchi ustuvor yo'nalish – mamlakatimizdaadolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;

uchinchchi ustuvor yo'nalish – milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash;

to'rtinchi ustuvor yo'nalish – adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;

beshinchi ustuvor yo'nalish – ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish;

oltinchi ustuvor yo'nalish – umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topish;

yettinchi ustuvor yo'nalish – mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat olib borish.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasidagi 7 ustuvor yo'naliishning bosh g'oyasi – inson qadrini ta'minlashdir. Chunki, Prezidentimizning saylov oldi dasturidagi asosiy g'oya ham "Inson qadri uchun" tamoyili edi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mustaqillikning dastlabki yillarida nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy hayotda, ma'naviy-marifiy jabhalar bo'yicha ham qator islohotlar amalga oshirilib, taraqqiyotning yangi "O'zbek modeli" ga asos solindi. Shu bilan birga yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi loyihasi negizida bir qancha yangi dasturlar, yangi konsepsiylar, yangi qonun hujjatlari qabul qilinishi nazarda tutilgan. Bu bilan mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik rivojlanishining keyingi bosqichida amalga oshiriladigan islohotlar keng qamrab olingan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. I.Karimov. Sharq 1998. Toshkent
2. O'zbekiston tarixi. R. Murtazaeva umumiy taxriri ostida. Yangi asr avlodи 2003. Toshkent
3. <http://pravacheloveka.uz/oz>
4. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022.
5. Islomov Z.M. O'zbekiston modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari. - Toshkent: O'zbekiston, 2005
6. Keldiyeva, S. (2024). TURKISTONDAGI JADID YANGI USUL MAKTABLARINING AHAMIYATI. Interpretation and researches, (4(26)).